TILGA MUNOSABAT - ELGA MUNOSABAT

Asqaraliyeva Malikabonu O‘tkir qizi
Guliston davlat pedagogika instituti 3- kurs talabasi
Email: malikabonuasqaraliyeva04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tiliga bo‘lgan etibor, u duch kelayotgan muammolar, uning hayotimizdagi o‘rni va xalqimizning bu muammolarga bo‘lgan munosabati, tengdoshlarimizning kompyuter asridagi savodxonlik darajasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tilga munosabat, millat ruhi, peshtaxta yozuvlari, afishalar imlosi muammosi, ijtimoiy tarmoq, tez yozmoq, qisqa fikr ifodalash, o‘quv markaz, tashkilot, Muhammad Yusuf, Alisher Navoiy, turkiy til.

Abstract: This article discusses the attention given to the Uzbek language, the challenges it faces, its role in our daily lives, and society's attitude toward these issues. It also examines the level of literacy among today's youth in the computer age.

Key words: attitude toward language, national spirit, shop signs, spelling problems in advertisements, social networks, fast typing, concise expression, educational centers, organizations, Muhammad Yusuf, Alisher Navoi, Turkic language.

Аннотация: В данной статье рассматривается внимание, уделяемое узбекскому языку, проблемы, с которыми он сталкивается, его место в нашей жизни и отношение общества к этим вопросам. Также анализируется уровень грамотности современной молодёжи в эпоху компьютерных технологий.

Ключевые слова: отношение к языку, дух нации, вывески, проблема орфографии в афишах, социальные сети, быстрая печать, краткое выражение мысли, учебные центры, организации, Мухаммад Юсуф, Алишер Навои, тюркский язык.

Til millat ko'zguzi, borligi, birligi, o‘tmishi va bugunni aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. Millat yashasha til ham doimo o‘sib rivojlanib boradi[1]. Shuning uchun har qanday xalq uning qadr-qimmati va himoyasi haqida doim o‘ylashi va qayg'urishi lozim. Bugungi kunda ona tilimizga bo‘layotgan munosabat va uning qay darajada mavqega ega ekanligini kuzatmoqdamiz. Bosqinchi, eng avvalo tilga hujum qiladi. Buni tarix isbotlab turibdi. O‘zbek xalqi ham asrlar davomida o‘zining tilini va qadriyatlarini asrab avaylab, himoya qilib kelmoqda. Ammo, keyingi yillarda ona tilimiz rivoji yo‘lida duch kelayotgan muammolar va unga bo‘lgan munosabat hamda tilimizga nisbatan tashqi ta’sirlarlar ko‘payayotgani sir emas.Yurtimizda tashkilotlar, muassasalar, korxonalar nomlari, o‘quv markazlari, do‘konlar peshtaxtalariga yozilgan ajnabiy tildagi nomlanishlar kishining g‘ashiga tegar darajada ko‘paymoqda. Masalan, “Los Angeles”, “IDEAL STUDY” xususiy o‘quv markazi, “Element” o‘quv markazi, “Real School” o‘quv markazlarining nomlanishini ko‘rib hayron qolaman, bu joyda nechta ingliz bolasi o‘qirkan(?), hammasi o‘zbekning farzandlari-ku. Nima, o‘quv markaz nomini o‘zbekcha yozsa, ilm tolibi kelmay qoladi-mi?.. Ayniqsa, bunday so‘zlar imlosini ko‘raverib “ko‘zi o‘rganib” qolgan yoshlarimiz imlosida ham “inglizlashish” bo‘y ko‘rsatayotganligi xavotirli emasmi? Til, imlo masalasi faqat tilchilarning ishi deb o‘ylashning oqibati, menimcha. Peshtaxtalarda o'z ona tilimizda emas boshqa tillardagi nomlanishlarni berayotganimiz ayanchli ahvolga tushib qolganimiz emasmi? Yoki o‘z ona tilimizga bo‘lgan hurmatimizmi? Biz bunga qanday qarayapmiz? Bunday xato(!)larni to‘g‘rilab yozishimiz va o‘z ona tilimizda nom berishimiz darkor. Ko‘chalarda afishalarda yozilgan shiorlarni ham aniq va imloviy xatolarsiz yozishimiz kerakligini ko‘rsatmoqda. Zotan til oddiy masala emas!

Qaysiki millat o‘z tiliga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirmasa, tildan uzoqlashadi va o‘z ona tilidan mahrum bo‘ladi. Shuning uchun, ona tilimizni asrab avaylashimiz va uni puxta bilishimiz, dunyo miqyosiga olib chiqish bizning vazifamiz ekanligini unutib qo‘ymasligimiz kerak. Millat sifatida jahon maydonida bo‘lish uchun o‘zbek tilini ko‘z qorachug‘idek asrash har bir o‘zbekning faxrli burchidir. Bugungi kunda yoshlar imlosining sustligiga maktab va oliygohlarda yozma savodxonlikka talab qo‘yilmasligi, qolaversa, ijtimoiy tarmoqdan yoshlarimiz-ning noo‘rin foydalanishi ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular ijtimoiy tarmoqda tez va qisqa yozishga urunib ba’zi so‘zlarni bosh harfi va oxirgi harfini yozishmoqda. Masalan, *bilan* so‘zini “*bn*”, *sh* harf birikmasini ingliz tilidagi “*w*” harfi bilan yozishmoqda. Buning oqibatida esa yoshlarimiz o‘zining tilida to‘g‘ri yozishni unutib yubormoqda. Shoirimiz Muhammad Yusufning "Kechir ona tilim" she’rida aytilgandek, o‘z tilimizdan kechirim so‘raydigan ahvolga kelib qolmadikmi?!

Sen bo'lmasang nima bizga sillik she'rlar,
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim
Ona tilim, kechir meni, ona tilim[2].

She'rning ushbu to'rtligida tilimiz bo'lmasa mukammal she'rlar ham yaratilmaydi, tili yo'q insonlarda dili ham, qalbi ham bo'lmaydi deydi shoir. Bizning tilimizni buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy adabiy tilining qonun- qoidalarini yuksak darajada ishlab chiqqan, o'sha davrdayoq bu tilning boy va yuksakligini isbotlagan. Har bir insonning dili va tilida o'zining tili oliy darajada turishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xamdamova, X., & Mardanov, R. (2024). Alisher Navoiy ijodidagi kichik janrlarni o'rganish texnologiyalari. *Jizpi xabarnomasi* , *1* (1), 593-597.
2. Mardanov, R. G. (2024). Shoir lirik she'riyatida xabar mavzusidagi g'azal va baytlar mazmuni haqida. *Iqtisodiyot va jamiyat* , (12-1 (127)), 225-229.
3. Rahim G'aybulla o'g', M., & Nikolayevna, T. T. (2024). Abdulla Oripov hayoti va faoliyatini o'rgatishning samarador usullari.
4. Rahim, M. (2025). Xabar qahramonlariga murojaat qilish va she'riy mahorat. *Yevropa xalqaro filologiya fanlari jurnali* , *5* (03), 12-16.